

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan oziq-ovqat xavfsizligi borasida qilinayotgan ilmiy ishlarga bag'ishlab o'tkazilgan matbuot anjumani haqida ma'lumot

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois ham bugungi kunda olimlarimiz e'tibor qaratishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biri oziq-ovqat xavfsizligi borasida ilmiy-tadqiqotlar qilish va uni hayotga tadbiq etishdir.

Bugun 28-noyabr sanasida Milliy matbuot markazida o'tkazilayotgan Matbuot anjumanda ham Fanlar akademiyasi tarkibidagi va Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar, ilmiy izlanishlar va ularning natijalari yuzasidan ma'lumotlar berib o'tiladi.



Matbuot anjumanida spiker sifatida Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Ibragimov Baxtiyor To'laganovich, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti direktori Narimonov Abduljalil Abdusamatovich, Qishloq xo'jaligi vazirligining Sabzavot, poliz ekinlari va Kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti laboratoriya mudiri Hakimov Rafiqjon Abdunabiyevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazi direktori Bo'riyev Zabardast Tojiboyevich, shuningdek, shu yo'nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan ilmiy xodimlar ishtirok etdi.





Tizimda oziq-ovqat xavfsizligi borasida qilinayotgan ilmiy ishlar xususida ma'lumotlar berildi. O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining oziq-ovqat xavfsizligi yo'nalishda olib borayotgan ilmiy izlanishlari.

Institut olimlari tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yuqori ozuqabop, tarkibida oqsil miqdori yuqori bo'lgan ekin turlari bo'yicha yangi navlar yaratishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Global iqlim o'zgarishi sababli aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda hosildorligi, nonboplik sifati yuqoriligi jihatidan xorijiy navlardan qolishmaydigan, issiqlik va qurg'oqchilikka chidamli bo'lgan, oqsilga boy qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini yaratish va birlamchi urug'chiligini tashkil qilish maqsadida O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti olimlari tomonidan yumshoq bug'doyning "Bardosh", "Pahlavon", "Oqmarvarid", "Qayroqtosh", "E'zoz" kabi mahalliy navlari yaratilib, Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo va Jizzax viloyatlariga realizatsiya qilinmoqda. Bundan tashqari oddiy soyaning "Genetik-1" va "Sochilmas" navlari, sabzavot soyasining "Izumrud", sabzavot loviyasining "Sharq yulduzi" navlari yaratilib, xalqimizni oqsilga boy ozuqa bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zR FA Genomika va bioinformatika markazining oziq-ovqat xavfsizligi yo'nalishda olib borayotgan ilmiy izlanishlari:

Genomika va bioinformatika markazi olimlari ham qishloq xo'jaligi ekinlarini zamonaviy genlarni tahrirlovchi texnologiyalar yordamida takomillashtirish ustida ko'pdan beri izlanishlar olib boradi. Natijalar esa qisqa vaqtda olingan yangi biotexnologik o'simlik navlari bilan yakunlanmoqda.

Hosildorlik, ertapisharlik va turli biotik hamda abiotik stresslarga aloqador genlar ustida olib borilgan tahrir ishlari natijasida bugungacha, bug'doy va kartoshkaning hosildor "Barkamol" va "Bisyor", navlari, g'o'zaning tola sifati yaxshilangan, ertapishar, hosildor va filt kasalliklariga, shuningdek, sho'r va qurg'oqchil muhitlarda bemalol o'sa oladigan "Porloq" seriyasidagi 8 ta, "Ravnaq-1", "Ravnaq-2", "Sahovat", "Baraka", "Tafakkur", "Bardosh" va boshqa qator navlari olindi.

Shuningdek, uzumning bir qator qadimiy navlari in vitro mikro klonlash usulida yangilanib, mahalliy bog'bonlarga yetkazib berildi. Bundan tashqari, mahalliy anorlar navlarini pasportlash ishlari amalga oshirildi va anorning yangi iqlim o'zgarishlariga bardoshli navlarini olish bo'yicha tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq tumanida joylashgan Orolning qurigan tubida yangi sho'rga, qurg'oqchilikka va sovuq iqlimga bardoshli g'o'za navlari sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazilib, ayni paytda ushbu navlarning kelgusi yilda urug'larini ko'paytirish ishlari rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik asosida Amerika qo'shma shtatlari olimlari bilan fuzariozli viltga chidamli yangi g'o'za navlari ro'yhatdan o'tkazildi. Makkajo'xorining abiotik stresslarga chidamli yangi navlarini CRISPR Cas eng so'nggi biotexnologik usulida olish bo'yicha yangi tadqiqotlar boshlandi. Shu kabi qator ilmiy izlanishlar haqida matbuot anjumanida ma'lumotlar berildi.

